O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BULUNG‘UR TUMANINING STATISTIK AXBOROTNOMASI

2022- YIL YANVAR-DEKABR

S a m a r q a n d – 2 0 2 3- y.

Qisqartma va shartli belgilar

%.	–	foiz	l.	–	litr
mlrd.	–	milliard	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mln.	–	million	m.	–	marta
mln.AQSh doll.	–	million AQSh dollari	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
kv.	–	kvadrat	ga.	–	gektar
km.	–	kilometr	tn.	–	tonna
m.	–	metr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi

MUNDARIJA

№	Nomi	bet.
I.	BULUNG‘UR TUMANI XARITASI VA ASOSIY KO‘RSATKICHLARI	5-6
II.	ASOSIY IJTIMOIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR	7-9
III.	SANOAT	10-12
IV.	XIZMATLAR	13-17
V.	KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	18-21
VI.	INVESTITSIYALAR VA QURILISH	22-24
VII.	ISTE’MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	25-27
VIII.	QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI	28-33
IX.	DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI	34-37

Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani

XARITASI



Viloyat	**Samarqand**
Tashkil topgan vaqti	***29.09.1926***
Umumiy maydoni	***0.76.ming.kv.km***
Tuman	**Bulung‘ur**
Mahalla fuqarolari yig‘inlari soni	***55 ta***
Aholi punktlari	***143 ta***
2023 yil 1 yanvar holatidagi doimiy aholi soni, ming kishi	***197,5***
sh.j.: **erkaklar**	***100,7***
ayollar	***96,8***
Chegaradosh viloyat	***Jizzax***
Chegaradosh tumanlar	***Jomboy, Toyloq, Urgut tumanlari***
Viloyat	**Samarqand**
Tashkil topgan vaqti	***29.09.1926***
Umumiy maydoni	***0.76.ming.kv.km***

II. ASOSIY IJTIMOIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar

(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Jami		***Aholi jon boshiga***	
	mlrd. so‘m	***2021 yilning shu davriga nisbatan,*** *% da*	***ming so‘m***	***2021 yilning shu davriga nisbatan,*** *% da*
Sanoat	695,4	108,5	3 558,3	106,3
Iste’mol tovarlari	649,9	121,3	3 325,5	118,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	540,1	67,3	2 016,7	66,0
Qurilish ishlari	260,8	108,5	1 334,5	71,9
Chakana tovar aylanmasi	1 084,9	107,8	5 552,1	105,6
Xizmatlar, jami	607,7	113,0	3 110,0	110,8

Tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSh dollari)

	Tashqi savdo aylanmasi	***Eksport***	***Import***	***Saldo***
2022 yil yanvar-dekabr oylarida	23,2	16,5	6,7	9,8

Bulung‘ur tumanining Samarqand viloyati bilan solishtirma asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

	Hajmi mlrd. so‘m	***2021 yilning shu davriga nisbatan,*** *% da*	***Tumanning viloyatdagi ulushi,*** *% da*
Sanoat mahsuloti	695,4	108,5	2,4
Iste’mol tovarlari	649,9	121,3	3,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	540,1	67,3	2,5
Qurilish ishlari	260,8	108,5	3,0
Yuk aylanmasi *(mln. tn-km)*	60,3	96,5	4,2
Yo‘lovchi aylanmasi *(mln.yo‘lovchi-km)*	890,4	100,0	6,4
Chakana tovar aylanmasi	1 084,9	107,8	4,0
Xizmatlar, jami	607,7	113,0	2,7
Tashqi savdo aylanmasi *(mln. AQSh doll)*	**23,2**	**91,1**	**1,0**
Eksport	16,5	112,5	2,5
Import	6,7	61,9	0,4

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning tahlili

	2022 yil yanvar-dekabr, mlrd. so‘m		
	O‘zbekiston Respublikasi	Samarqand viloyati	Bulung‘ur tumani
Sanoat	551 050,9	29373,7	695,4
o‘sish sur’ati, foizda	105,2	109,0	108,5
Iste’mol tovarlari	197 892,7	18374,5	649,9
o‘sish sur’ati, foizda	119,4	119,4	121,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	364 522,8	43 933,0	4 349,1
o‘sish sur’ati, foizda	103,6	103,7	104,3
Asosiy kapitalga investitsiyalar	269 857,5	21 955,2	540,1
o‘sish sur’ati, foizda	100,9	129,5	67,3
Qurilish ishlari	130 767,1	8 762,2	260,8
o‘sish sur’ati, foizda	106,6	110,1	108,5
Chakana tovar aylanmasi	319 288,2	27 232,9	1 084,9
o‘sish sur’ati, foizda	112,3	112,2	107,8
Jami xizmatlar	357 554,5	22 734,9	607,7
o‘sish sur’ati, foizda	115,9	114,9	113,0
Eksport, mln.AQSh dollari	19 309,1	656,1	16,5
o‘sish sur’ati, foizda	115,9	123,4	112,5
Import, mln. AQSh dollari	30 699,3	1 728,4	6,7
o‘sish sur’ati, foizda	120,4	124,5	61,9

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarda kichik biznes ulushi, %da

Sanoat	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	Investitsiya	Qurilish ishlari	Chakana tovar aylanmasi	Jami xizmatlar	Eksport	Import

99,5	92,7	81,9	72,4	96,8	75,8	100,0	100,0

III. SANOAT

Dastlabki ma’lumotlarga asosan 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Bulung‘ur tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 695,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,5 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 649,9 mlrd. so‘mlik iste’mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2021 yil yanvar-dekabriga nisbatan 121,3 foizni tashkil etdi. Jumladan, 243,8 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 37,5 % ni tashkil qilib, 391,4 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarildi va umumiy hajmga nisbatan 60,2 % ni (2021 yil yanvar-dekabrga nisbatan mos ravishda 31,9 foiz va 66,1 foiz) tashkil qildi, shuningdek, aroq va sharob mahsulotlari ishlab chiqarish 14,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan 2,3 % ni tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, *% da*



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz ichki bozorini tovar va xizmatlar bilan ta’minlashda, aholi bandligi va real daromadlarini oshirishda, resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanishda, ijtimoiy guruhlar daromadlarining nomutanosibligini kamaytirishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yaxshilashda katta

ahamiyatga ega bo‘lib, islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlariga ham, iste’molchi talabi o‘zgarishlariga ham tez moslashishga qodir bo‘lib, iste’mol bozoridagi muvozanatni ushlab turishda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Tumanda 695,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, shundan 649,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmning 99,5 % ni kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi *(mlrd. so‘mda)*



Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Bulung‘ur tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 695,4 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 691,8 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida *(foiz hisobidagi ulushi)*



Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini shahar hamda tumanlarni viloyat ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o‘sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Bulung‘ur tumanida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 695,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, mazkur ko‘rsatkich Samarqand viloyatining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 2,4 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 3558,3 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,3 % ga etkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, tumanda iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishi 649,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, Samarqand viloyatining jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishida 3,5 % ni tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan iste’mol tovarlari aholi jon boshiga 3325,5 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 118,8 % ga etkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

IV. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi. Natijada, 2022 yil yanvar–dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 607,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etdi.

Bulung‘ur tumanida jami xizmatlarning o‘sish sur’atlari dinamikasi, *% da*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2022 yil yanvar-dekabr oylari)

	Mln. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Ulushi, % da
Xizmatlar – jami	**607684,6**	**113,0**	**100,0**
shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	46035,8	122,3	7,6
moliyaviy xizmatlar	64831,6	118,2	10,7
transport xizmatlari	154635,3	112,3	25,5
shundan: avtotransport xizmatlari	153635,3	112,3	25,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	18930,6	123,2	3,1
savdo xizmatlari	189267,1	107,3	31,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	14817,8	114,4	2,4
ta’lim sohasidagi xizmatlar	15968,7	113,4	2,6
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	7783,7	103,3	1,3
ijara xizmatlari	19677,7	115,3	3,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	20883,8	111,0	3,4
shaxsiy xizmatlar	30347,1	111,6	5,0
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,0	0,0	0,0
boshqa xizmatlar	24505,4	123,8	4,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) bozor xizmatlari hajmi, *mln. so‘mda*
(yanvar–dekabr oylarida)



Tumanda eng katta xizmatlar hajmi savdo xizmatlari (189 267,1 mln. so‘m) va transport xizmatlari (154 635,3 mln. so‘m) ga to‘g‘ri keladi.

Eng kichik xizmatlar hajmi esa, sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (7 783,7 mln. so‘m) ga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi, *% da*



Xizmatlar sohasida faoliyat turlari bo‘yicha eng yuqori ulush savdo xizmatlari (31,2 %) va transport xizmatlari (25,5 %) da kuzatilgan bo‘lsa, sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,3 %), me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,0 %) hamon pastligicha qolmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarining o‘sish sur’ati, *% da*



Bulung‘ur tumanida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari boshqa xizmatlar (123,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (123,2 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (122,3 %) da qayd etilgan bo‘lsa, sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (103,3 %) da pasayish kuzatildi.

V. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Bulung'ur tumanida 2023 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 5 797 tani tashkil qilib, shundan **3 481** tasi yoki 60,0 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 3 749 ta (64,7 foizi), savdoda 883 ta (15,2 foizi), sanoat 387 ta (6,7 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 150 ta (2,6 foizi) , qurilish 81 ta (1,4 foizi) va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish 442 ta (7,6 foiz), sohalariga to'g'ri keladi.

2023 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

	Ro'yxatga olinganlar		*Faoliyat ko'rsatayotganlar*	
	birlik	*yakunga nisbatan, % da*	*birlik*	*yakunga nisbatan, % da*
Jami	**5 797**	**100,0**	**3 481**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 749	64,7	1 535	44,1
sanoat	387	6,7	362	10,4
qurilish	81	1,4	80	2,3
savdo	883	15,2	841	24,2
tashish va saqlash	45	0,8	45	1,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	150	2,6	141	4,1
axborot va aloqa	30	0,5	28	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	30	0,5	30	0,9

boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	442	7,6	419	11,9

Ro‘yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 96,6 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar, shundan 5,7 foizi xususiy korxonalar, 0,4 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar 90,5 foizi boshqa korxonalar ulushiga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatga olingan xo‘jalik yurituvchi subyektlar yuridik shaxslar mulkchilik shakllari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi *(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)*



2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami 529 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes subyektlari 505 ta).

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 42,5 foizi savdo, 16,1 foizi sanoat va 21,2 foizi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohalariga to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida 82 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari

(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)

2023 yil 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olingan kichik biznes subyektlari soni 2 125 tani tashkil etib,

shundan 2 012 tasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2022 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 505 tani tashkil etadi. O‘z navbatida, faoliyatini tugatgan kichik biznes subyektlari soni 72 tani (jamiga nisbatan 2,4 foiz) tashkil etmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi savdo 881 ta (41,5 foizi), sanoat 387 ta (18,2 foizi), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 373 ta (17,6 foizi), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 150 ta (7,1 foizi), qurilish 79 ta (3,7 foizi) hamda boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish 153 ta (7,2 foizi) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni *(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)*

	Ro‘yxatga olinganlar		***Faoliyat ko‘rsatayotganlar***	
	birlik	***yakunga nisbatan, % da***	***birlik***	***yakunga nisbatan, % da***
Jami	2 125	100,0	2 012	100,0
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	373	17,6	349	17,3
sanoat	387	18,2	362	18,0
qurilish	79	3,7	78	3,9
savdo	881	41,5	839	41,7
tashish va saqlash	45	2,1	45	2,2
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	150	7,1	141	7,0
axborot va aloqa	29	1,4	27	1,3
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	28	1,3	28	1,4
boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	153	7,2	143	7,1

Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, Samarqand viloyatida 2023 yilning 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olingan chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 723

tani tashkil qilib, Bulung‘ur tumanida 26 tani shundan faoliyat ko‘rsatayotgan 25 ta, yangi tashkil etilgani 2 ta. Tugatilgan korxona yo‘q.

Oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

2023 yilning 1 yanvar holatiga Bulung‘ur tumanida jami 513 ta oilaviy korxona ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 139 taga ko‘payganligi kuzatilgan, faoliyat ko‘rsatayotganlari esa 467 tani tashkil etadi.

Bulung‘ur tumanida ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalarning Samarqand viloyatida tutgan ulushi 4,6 foizga teng.

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	01.01 2022	**01.01.2023**	**01.01.2022**	**01.01.2023**
Samarqand viloyati	**9 626**	**11 235**	**9 041**	**10 499**
Bulung‘ur	374	513	345	467
Viloyatdagi ulushi, %	3,9	4,6	3,8	4,4